

## **MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, METOD VA VOSITALARI**

**Boqijonova Nargiza Jumanazar qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

Maqola maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab oladi. Muallif 5-6 yoshli bolalar nutqiga qo‘yiladigan talablari, muloqot vositalari, qo‘llaniladigan metod va usullar haqida o‘z taklif va mulohazalarini berib o‘tgan.

Inson hayotida, uning ijtimoiylashuvida nutq eng asosiy vositasidir. Shu sababdan ham bolada nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish pedagog va ota-ona oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bola eshitadigan, ma’nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo‘llaydigan so‘zlarni asta-sekin tevarak-atrof bilan tanishish jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o‘zining uncha ko‘p bo‘lmagan so‘z zaxirasiga tayanib bilib oladi. Bola o‘ziga boradi, uning ehtiyojlari ko‘payadi, yangi istaklari qiziqishlari paydo bo‘ladi. Hozirgi davr tadqiqotchilari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun (shu jumladan, nutqni rivojlantirish bo‘yicha ham) namunaviy faol va passiv so‘zlar lug‘atini (hech bo‘lmaganda taxminiy) tuzishlari ham kun tartibidagi dolzarb masaladir. Ayniqsa, 5, 6 va 7 yoshdagi bolalar uchun lug‘atlar tuzish nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, nafaqat so‘zlarning miqdoriy tarkibini aniqlash (1500,2000 yoki 3000 - 4000 so‘z), balki ularni mavzular va hayotiy ahamiyati bo‘yicha ham hisobga olish muhimdir. Chunki bola hayoti davomida turli-tuman vaziyatlarni boshdan kechiradi. Ushbu vaziyatlarda unga so‘z boyligi yordamchi vazifasini o‘taydi.

Lug‘at ishi jarayonida (va boshqa nutqiy vazifalarni hal etish jarayonida) pedagog bolalarda nutqning aniqlik, to‘g‘rilik, ravonlik, ifodalilik kabi sifatleri amalga oshishiga erishishi zarur. Bolalarda fikr bildirish uchun so‘zlovchining niyatini aniq aks ettiruvchi leksik vositalarni tanlab olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bolalar nutqining to‘g‘ri va ravon rivojlanishida MTT defektologining ahamiyati katta. Defektologning vazifasi nutqida nuqsoni bo‘lgan, shuningdek, jismoniy va psixik jihatdan nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyat olib borishdir. Defektolog bilan mashg‘ulot o‘tkazishga ehtiyoji bor bolalar ular MTTga

qabul qilingandan so'ng 2 hafta ichida aniqlanadi. Defektolog bola bilan 6 oy davomida individual tarzda shug'ullanadi. So'ngra, hududiy biriktirilgan logoped tomonidan tekshiruv o'tkaziladi. Agar uning nutqida nuqson aniqlansa MTT defektologi tarbiyalanuvchi bilan shug'ullanishda davom etadi.

Maktabgacha yosh bolalar uchun rivojlanish sohalari belgilangan bo'lib, ulardan biri nutq, muloqot o'qish va yozish malakalari hisoblanadi va sohaning o'zi yana kichik sohalarga bo'linadi. Bola rivojlanib borgani sari uning lug'atida so'zlar soni ortadi, o'z tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti yaxshilanadi. 5-6 yosh boladan kutiladigan natijalar mavjud bo'lib, ularning har birini bolada rivojlantirish uchun tarbiyachi tomonidan ma'lum pedagogik texnologiyalar, metod, usul va vositalar qo'llanilishi lozim. Avvalambor 5-6 yosh boladan nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasida kutilayotgan natijalarga to'xtalib o'tsak:

Kichik soha: Nutq va til: kuzatayotgan hodisa va voqealarni tushuntirib beradi; umumlashtiruvchi so'zlarni to'g'ri qo'llaydi (meva, sabzavot, daraxtlar, qushlar, idish-tovoq); o'ziga nisbatan predmetlar joylashuvini ta'riflaydi (oldimda, stolda); so'zlarni mazmuniga ko'ra to'g'ri qo'llaydi; nutqida ma'nosiga monand asosiy so'z turkumlarini qo'llaydi; bir negizli so'zlarni (namuna asosida) tuza oladi (mushuk-mushukcha-mushukli); grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadi; suhbatlasha oladi; kattalar yordamida ijodiy hikoya tuzadi; barcha tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qiladi; xorijiy tilni bilishi: salomlashish va xayrlashish so'zlarini qo'llaydi; 10 gacha sanashni biladi; asosiy ranglar nomini biladi (oq, sariq, qizil, yashil, ko'k, qora).

Kichik soha: O'qish malakalari: so'zdagi birinchi tovushni biladi; kitobni mustaqil tomosha qiladi; tovushlarni farqlaydi; so'zlarni bo'g'inga bo'ladi; so'zlarga qofiya kelishtiradi; nutqning dialogik shaklini qo'llaydi, savollar beradi; she'rlarni yod oladi va ifodali o'qiydi; sevimli badiiy adabiyot, ertak va hikoya mualliflari va ularning nomini biladi; ifodalilikning ohang vositalarini to'g'ri qo'llaydi; harflarga tegishli so'zlarni topadi.

Kichik soha: Qo'l barmoqlari mayda motorikasi: chiziq, ilgak va gajakcha yozadi; qog'ozni turli usulda taxlaydi (origami); namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi; barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi; rasmlarni tekis shtrixlaydi; turli sathlarda chizadi (nam qumda, asfaltda, doskada); soch o'radi; mozaika yig'adi.

Keling endi mashg'ulot jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik texnologiyalarga misollar ko'rib chiqamiz.

**“Hikoya tuzamiz”** texnologiyasi. Tarbiyachi doskaga bir nechta predmetlarni Rasmini iladi yoki ularni televizor orqali ko'rsatadi. Masalan: quyosh, gul, muzqaymoq, mushuk. Bolalarning har biri o'zi istagan rasm asosida kichik hikoya tuzadi.

**“To‘rtinchisi ortiqcha”** texnologiyasi. Bu texnologiya rasmlar orqali o‘ynaladi. Bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytiladi. Masalan: atirgul, boychechak, binafsha, qo‘ziqorin. Bola ular orasidan ortiqchasini aytganidan so‘ng tarbiyachi fikrini asoslab berishini so‘raydi.

**“Buni qanday qo‘llash mumkin”** texnologiyasi. Bolalarga imkon qadar ko‘p hollarda ishlatilishi mumkin bo‘lgan predmet nomini ayting. Har bir bola o‘z uslubini taklif qilishiga erishing. Masalan: siz qalam so‘zini aytingiz mumkin. Uni ishlatish yo‘llari turlicha bo‘lishi mumkin: rasm chizish, yozish, ko‘rsatkich sifatida va hokazo.

**“Umumiylikni izlash”** texnologiyasi. Bolalar aylana qurib o‘tiradilar. Olib boruvchi bolalardan biriga to‘pni otayotib, bir-biri bilan bog‘lanmagan 2 ta so‘zni aytadi. Masalan: bog‘chada bola, kitob, Javon, quyosh va gul va hokazo. To‘pni tutib olgan bola so‘z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to‘pni qaytaradi.

Ushbu texnologiyalar orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyati, tafakkuri, monologik va dialogik nutqi yaxshilanadi. Talaffuzi, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi, tovushlarni bir-biridan farqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, MTT tarbiyalanuvchilarning nutqini har tomonlama rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, bunga tarbiyachi va MTT defektologi javobgar hisoblanadi. Bolaning lug‘at boyligi tevarak-atrofnii, kattalar faoliyatini bevosita kuzatish, ta‘limiy o‘yinlar, pedagogik texnologiyalar asosida ortib boradi. Predmet nomlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, uning turi, shakli, xossalarini aniqlash, ranglar nomlarini bir-biridan ajrata olish ko‘nikmalarini, nutq madaniyatini shakllantirish bolaga maktab davrida samarali ta‘lim-tarbiya olishi uchun yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli qarori.
2. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” Babayeva D.R. Toshkent-2018.
3. “Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish” Muzaffarova X.N., Normatova M.K. Toshkent-2022
4. “Nutq o‘stirish va bolalar adabiyoti” M.A.Valixonova, M.J.Maxammatova, M.T.Umaraliyeva. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2021.